

“UNA MOLIYA” MMT MCHJ QKda “Texno-o‘yin” aksiyasini o‘tkazish qoidolari:

1. Aksiya tashkilotchisi va uni o‘tkazish tartibi

1.1. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga (keyingi o‘rinlarda – “Qoidalar”) muvofiq “UNA MOLIYA” MMT MCHJ QK (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) tomonidan o‘tkaziladigan “Texno-o‘yin” aksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) uchun ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining unamoliya.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

1.2. Mikroqarz olish kanali: <https://unamoliya.uz/> veb-sayti va “Una Moliya — займы на карту” (“Una Moliya – kartaga qarz”) mobil ilovasi <https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.unamoliya.app>.

Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmati: +998 55 5200747.

Rasmiy Instagram sahifasi: <https://www.instagram.com/unamoliya>.

Rasmiy axborot Telegram kanali: <https://t.me/unamoliya>.

1.3. Aksiya rag‘batlantiruvchi lotereya, qimor o‘yini yoki O‘zbekiston Respublikasining lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.04.2024 y. dagi “Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-son Farmoni) bilan tartibga solinadigan boshqa o‘yin hisoblanmaydi.

1.4. Aksiya sovrinli o‘yin orqali o‘tkaziladi.

1.5. Aksiya tashkilotchisi: “UNA MOLIYA” MMT MCHJ QK.

Bog‘lanish uchun ma‘lumotlar: “UNA MOLIYA” MMT MCHJ QK

STIR: 311 431 122

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100057, Olmazor tumani, Qorasaroy ko‘chasi, 315a.

2. Sovrinli o‘yin o‘tkaziladigan hudud

2.1. Sovrinli o‘yin O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

2.2. Aksiya doirasida sovrinli o‘yinni o‘tkazish muddatlari: **2026-yil 24-avgustdan 2026-yil 30-sentyabrgacha**, quyidagi sanalarda:

Bosqich №	Aksiya boshlanish sanasi	Ishtirokchilard an oxirgi arizani qabul qilish sanasi	Ishtirokchilarni tahlil qilishni to'xtatish sanasi	Sovrinli o‘yin sanasi	Sovrin jamg‘armasi
1	2026-yil 24-avgust, Toshkent shahri vaqti bilan soat 09:00	2026-yil 30-sentyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 09:00 da	2026-yil 30-sentyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 13:00 da	2026-yil 30-sentyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 15:00 da	1. iPhone 17 Pro – 3 dona (256GB Cosmic Orange Dual SIM), Rangi: olov rang 2. iPhone 17 Pro Max – 2 dona (512GB Cosmic Orange Single SIM), Rangi: olov rang 3. Apple Watch SE GPS Gen.3, 44mm – 3 dona 4. Apple Watch SE GPS Gen.3, 40mm – 3 dona 5. Apple AirPods quloqchinlari, 5 dona

Sovrinli o'yin o'tkazish jadvaliga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan dam olish va bayram kunlarini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Sovrinli o'yin ishtirokchisi ushbu Qoidalarining amal qilish muddati davomida "UNA MOLIYA" MMT MCHJ QK bilan mikroqarz shartnomasini imzolash orqali avtomatik ravishda ushbu Qoidalarining qoidalari va shartlariga rozilik bildiradi va ularni qabul qiladi.

3. Sovrinli o'yinning sovrin jamg'armasi:

3.1. Sovrinli o'yin bo'yicha sovrin jamg'armasi 16 (o'n olti) ta sovrindan iborat, xususan:

№	Sovrin nomi	Sovrinlar soni, dona
1	iPhone 17 Pro (256GB Cosmic Orange Dual SIM). Rangi: olov rang	3
2	iPhone 17 Pro Max (512GB Cosmic Orange Single SIM). Rangi: olov rang	2
3	Apple Watch SE GPS Gen.3, 44mm	3
4	Apple Watch SE GPS Gen.3, 40mm	3
5	Apple AirPods 4 quloqchinlari	5
Jami:		16

3.2. Saytdagi va reklama materiallaridagi sovrinlarning tasviri, rangi va modeli haqiqiy sovrinlardan vizual jihatdan farq qilishi mumkin. Tashkilotchi sovrin rangi va modelini o'zgartirish huquqiga ega.

3.3. Aksiya tashkilotchisi o'z xohishiga ko'ra e'lon qilingan sovrinlarni (Apple texnika modellari) shunga o'xshash yoki kattaroq qiymatdagi va/yoki ekvivalent texnik xususiyatlarga ega boshqa sovrinlarga almashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunday almashtirish e'lon qilingan model ishlab chiqarishdan olib tashlangan, u sovrin jamg'armasini xarid qilish paytida erkin sotuvda mavjud bo'lmagan, shuningdek Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Sovrinlarning rangi, komplektatsiyasi va aniq modifikatsiyasi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi va reklama materiallaridagi tasvirlarga mos kelmasligi mumkin.

4. Sovrinli o'yinni o'tkazishning umumiy shartlari

4.1. Sovrinli o'yinda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan 21 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin, Tashkilotchi xodimlari, ularning oila a'zolari hamda affillangan kompaniyalar va yetkazib beruvchilar xodimlari bundan mustasno.

4.2. Sovrinli o'yinda ishtirok etish uchun Aksiyaning bosqichlaridan birida Tashkilotchi xizmatidan foydalanish va <https://unamoliya.uz/> sayti yoki <https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.unamoliya.app> mobil ilovasida 12 oygacha muddatga **25 000 000 so'mgacha** miqdorda mikroqarz olish lozim. Bunda, mikroqarz sovrinli o'yinni o'tkazish vaqtida muddati o'tgan, mikroqarz berish to'g'risidagi shartnoma shartlari buzilgan holda to'lanmagan bo'lmashligi kerak.

4.3. Agar Aksiya o'tkazilayotgan paytda Qarz oluvchida amaldagi mikroqarz shartnomasi bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar mavjud bo'lsa, Qarz oluvchida Aksiyada va u bilan tartibga solingan sovrinli o'yinda ishtirok etish huquqi faqat joriy qarzдорlikni muddatidan oldin yoki rejali ravishda to'liq to'lash va yangi mikroqarz shartnomasini tuzish sharti bilan yuzaga keladi.

4.4. Bitta ishtirokchi Sovrinli o'yinning har bir bosqichida ko'pi bilan 1 (bitta) Sovrin yutib olishi mumkin.

4.5. Sovrinli o'yinni o'tkazish bo'yicha aksiya 2026-yil 24-avgust kuni Toshkent vaqti bilan soat 09:00 da boshlanadi va 2026-yil 24-avgustdan 2026-yil 30-sentyabrgacha Toshkent vaqti bilan soat 09:00 da 1 (bir) bosqichda o'tkaziladi.

5. Sovrinli o'yinni o'tkazish mexanikasi:

5.1. Sovrinli o'yin quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. Sovrinli o'yin shartlariga mos keladigan rasmiylashtirilgan mikroqarzlarni olish amalga oshiriladi;
2. Qarz oluvchi tomonidan olingan sovrinli o'yin shartlariga mos keladigan har bir mikroqarzga noyob raqam beriladi;
3. Ushbu qoidalarining 10.1-bandiga muvofiq hisob ma'lumotlari va axborot tizimlari asosida: ishtirokchilarning maksimal soni va g'oliblar soni tanlanadi, majburiy shart – "natijalar takrorlanmasligi";
4. G'oliblarni aniqlash.

5.2. Bitta ishtirokchi bir nechta tartib raqamiga ega bo'lishi mumkin (4.2-bandga muvofiq, yutuqli o'yinni o'tkazish davrida olingan har bir mikroqarz uchun).

Sovrinli o'yin kuni mijoz tartib raqamini oladi, mijoz bir nechta tartib raqamlariga ega bo'lishi mumkin (har bir olingan mikroqarz uchun, sovrinli o'yin o'tkazish davomida), u faqat o'yinning ushbu bosqichida ishtirok etadi. Sovrinli o'yinning boshqa bosqichlarida ishtirok etish uchun tegishli bosqich ishtirokchilarini ro'yxatga olish vaqtida mikroqarz olish zarur.

Sovrinli o'yinni o'tkazish davrida muddati o'tgan, mikroqarz berish to'g'risidagi shartnoma shartlarini buzgan holda to'langan mikroqarzlari bo'lgan shaxslar o'yinda ishtirok etmaydilar.

6. Ishtirokchining huquqlari

6.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

1. Ushbu Qoidalarda belgilangan Aksiyani o'tkazish shartlari va Sovrinli o'yinni o'tkazish shartlari bilan tanishish;
2. Sovrinli o'yinda ishtirok etish;
3. Aksiya davomida mikroqarz olish;
4. Sovrinli o'yin g'olibi bo'lgan ishtirokchi ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda va tartibda tegishli Sovrinni olishga haqli.

7. Ishtirokchining majburiyatlari

7.1. G'olib bo'lgan Ishtirokchilar Tashkilotchiga F.I.Sh., aktual aloqa ma'lumotlari, shuningdek, Sovrinni olish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ma'lum qilish majburiyatini oladilar. Xohishiga ko'ra, ishtirokchi yutuqqa erishgan taqdirda sovrinni olish uchun zarur deb hisoblagan boshqa ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda taqdim etishi mumkin.

7.2. Sovrinli o'yinda ishtirok etish orqali ishtirokchi Tashkilotchiga O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuniga muvofiq Sovrinli

o'yinda ishtirok etish chog'ida Tashkilotchiga taqdim etiladigan shaxsga doir ma'lumotlarini, shu jumladan: F.I.Sh., hujjat raqami, berilgan sanasi, JSHSHIR, tug'ilgan sanasi, yashash manzili (shahri), shaxsiy guvohnoma nusxasini, pochta manzili, yoshi, telefon raqami, aloqa uchun elektron manzilini qayta ishlashga rozilik beradi. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shaxsga doir ma'lumotlar bilan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmuasini, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan, amalga oshirishni, shu jumladan yig'ish, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, foydalanish), shu jumladan agentlik shartnomalari yoki Tashkilotchi bilan tuzilgan boshqa shartnomalar asosida faoliyat yurituvchi uchinchi shaxslarga (shu jumladan yuridik shaxslarga) uzatishni o'z ichiga oladi.

7.4. Ishtirokchilar Tashkilotchiga G'olibning nomidan o'zining barcha marketing materiallarida, unamoliya.uz saytida, mobil ilovasida va boshqa axborot manbalarida foydalanish huquqini beradilar.

8. Tashkilotchining huquqlari

8.1. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

1. Agar noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar taqdim etilsa yoki ma'lumotlarni taqdim etishning e'lon qilingan muddatidan kechikib, ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan ma'lumotlar taqdim etishning e'lon qilingan muddatlaridan kechikib taqdim etilsa, Ishtirokchiga Sovrinli o'yinda ishtirok etishni yoki sovrinni olishni rad etish;

2. Tashkilotchi, agar ishtirokchilar sovrinli o'yinda g'alaba qozonish uchun insofsiz usullardan foydalansa, ularni o'z xohishiga ko'ra sovrinli o'yindan chetlatish huquqiga ega.

9. Tashkilotchining majburiyatlari.

9.1. Tashkilotchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

1. Sovrinli o'yinni ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda o'tkazish;
2. Sovrinli o'yin g'olibi deb topilgan ishtirokchiga sovrinni topshirish.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq G'oliblarning Sovrinni olishi munosabati bilan yuzaga keladigan soliqlarni hisoblash va to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

10. Sovrinli o'yin natijalarini sarhisob qilish va sovrinni olish tartibi

10.1. G'olibni tanlash ishtirokchilarning tartib raqamlari bo'yicha hisob ma'lumotlari va axborot tizimlari – tasodifiy sonlar generatori asosida amalga oshiriladi. G'oliblarni tanlash Sovrinli o'yinning har bir bosqichi bo'yicha ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

10.2. Agar Sovrinli o'yinning har bir bosqichi tugagandan va g'olib e'lon qilingandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra g'olib bilan bog'lanish imkoni bo'lmasa, u ushbu sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

10.3. Tashkilotchi g'olib bilan mikroqarzni rasmiylashtirishda ko'rsatilgan telefon raqami orqali bog'lanadi.

10.4. O'yinning har bir bosqichi g'olibi haqidagi ma'lumotlar Buyurtmachining ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinadi.

10.5. Yutib olingan sovrinni g'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan holda Aksiya Tashkilotchisining ofisidan olishi mumkin. G'olibning yashash joyida Tashkilotchining ofisi mavjud bo'lmagan taqdirda, sovrin Tashkilotchi tomonidan yetkazib beriladi.

10.6. Sovrinni olish uchun Kelishuvni to'ldirish, ya'ni g'olibning shaxsga doir ma'lumotlarini, jumladan, hujjat raqami, berilgan sanasi, JSHSHIR, yashash manzili (shahar), shaxsiy guvohnoma nusxasini va Aksiyaga tegishli boshqa ma'lumotlarni taqdim etish lozim. Yuqoridagi ma'lumotlarni taqdim etish rad etilsa, sovrinni berishda rad etiladi.

10.7. Sovrinlarni berish muddati: Tashkilotchi g'olibdan to'liq hujjatlar to'plamini olgan kundan boshlab 14 (O'n to'rt) ish kuni ichida.

10.8. Sovrin almashtirilmaydi, sovrinning pul ekvivalenti berilmaydi.

11. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgardir:

11.1. Ishtirokchilar tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganligi (o'z vaqtida bajarilmaganligi) uchun;

11.2. Ishtirokchi tomonidan Sovrinli o'yinni o'tkazish qoidalarini bilmasligi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar uchun;

11.3. Sovrinli o'yinni o'tkazishda Internet tarmog'ida va (yoki) foydalaniladigan aloqa kanallarida texnik muammolar va (yoki) firibgarlik natijasida ishtirokchilardan xatlar, qo'ng'iroqlar, faksimil va (yoki) elektron xabarlar olinmaganligi uchun;

11.4. Ishtirokchilardan Sovrinli o'yinni o'tkazish va sovrinni topshirishda zarur bo'lgan to'liq bo'lmagan va (yoki) noto'g'ri aloqa va (yoki) boshqa ma'lumotlarni olganlik uchun.

12. Boshqa shartlar

12.1. Sovrinli o'yinda ishtirok etish avtomatik ravishda ishtirokchining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqqanligi va ularga roziligini anglatadi.

12.2. Sovrinli o'yin ishtirokchisi bo'lish orqali shaxs, agar u Sovrinli o'yin g'olibi bo'lsa, Tashkilotchi bu haqda g'olibning ismi, familiyasi, fotosurati, yashash shahri kabi ma'lumotlarni e'lon qilib, istalgan shaklda ommaviy e'lon qilishga haqli ekanligiga rozilik beradi.

12.3. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Tashkilotchi va ishtirokchilar "UNAMOLIYA" MMT MCHJ QK tomonidan mikroqarzlarni berish qoidalariga hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

12.4 Ushbu Qoidalar Tashkilotchining rasmiy veb-saytida - <https://unamoliya.uz/> joylashtirilgan.

12.5 Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona asosda hal etilishi lozim.

12.6 Agar Tomonlar 12.5-bandga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilishga erishmasalar, nizo Tashkilotchi ro'yxatdan o'tgan joyda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi lozim.